

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**O'ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI**

**Oliy ta'lidan keyingi ta'lim institutiga kiruvchilar uchun  
10.00.11- Til nazariyasi. Amaliy va kompyuter lingvistikasi**

**ixtisosligidan**

**DASTUR**

**TOSHKENT-2023**

**Tuzuvchilar:**

filologiya fanlari doktori, dotsent **A.G.Yuldashev**

filologiya fanlari doktori, dotsent **G.I.Ergasheva**

filologiya fanlari doktori, dotsent **G.M.Galiyeva**

## **Mundarija**

1. Kirish.....
2. Imtihon savollarining tuzilishi.....
3. Kirish imtihonining asosiy talablari.....
4. Dasturning mazmuni.....
5. Foydalanilgan adabiyotlar.....

## KIRISH

O‘zbekiston Respublikasi istiqbolli rivojlanishining yangi bosqichida madaniyat, san'at va fan sohalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev 2020-yilning 24-yanvar kuni O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga yo‘llagan Murojaatnomasida «...ilm-fan yutuqlarining elektron platformasi, mahalliy va xorijiy ilmiy ishlanmalar bazasini shakllantirish lozimligi, har bir oliy ta'lif va ilmiy-tadqiqot dargohi nufuzli chet el universitetlari va ilmiy markazlari bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yishi shart» ekanligi ta'kidlandi. Bu esa xorijiy tillarni o‘rgatish tizimini rivojlantirish va ularning ma'naviy dunyosini boyitishga yo‘naltirishni talab etadi.

Hozirgi paytda xorijiy tillarni o‘rganish va o‘rgatishga yurtimizda katta ahamiyat berilmoqda. Bu ham, albatta, bejiz emas. Bugun jahon hamjamiyatidan o‘ziga munosib o‘rin egallahsga intilayotgan mamlakatimiz uchun, chet ellik sheriklarimiz bilan hamjihatlikda, hamkorlikda o‘z buyuk kelajagini qurayotgan xalqimiz uchun xorijiy tillarni mukammal bilishning ahamiyatini baholashning xojati yo‘qdir. Ammo shunga alohida urg‘u berishimiz zarurki, chet tillarni o‘rganish bilan birga ona tilini ham esdan chiqarmaslik lozim. O‘z fikrini mutlaqo mustaqil, chet tili va ona tilida ravon, go‘zal va lo’nda ifoda eta oladigan yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash, oldimizda turgan eng muhim vazifalardan biridir. Yuqori malakali ilmiy-pedagogik kadrlarni tayyorlashda tayanch doktoranturaga kiruvchilar uchun dastur tuzish hozirgi kunning dolzarb masalalaridan biridir.

Chet tillari bo‘yicha nazariy bilimga ega bo‘lgan va mustaqil fikr yuritish ko‘nikmalarini hosil qilishda dasturlarning ahamiyati kattadir. Mamlakatimiz ravnaqi, ta'lif sohasi taraqqiyoti va chet tillarni o‘rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarorini amalga oshirishda boshqa fanlar bilan bir qatorda tilshunoslikning ham o‘z maqsadi va vazifalari bor. Zotan, til azaldan xalqlarning ham iqtisodiy, ham ijtimoiy-siyosiy integratsiyasi uchun asosiy vosita vazifasini o‘tab kelgan. Shunday ekan, yurtimiz iqtisodining gullab-yashnashida tilshunoslikning alohida o‘rnini bor.

Tayanch doktoranturaga kiruvchilarning bilim darajasini sinashda ushbu dastur muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Mazkur dastur tilshunoslik nazariyasi mutaxassisligi bo‘yicha tayanch doktoranturaga kirish uchun mo‘ljallangan. Unda tilshunoslik bo‘yicha ilmiy izlanishlar, dolzarb muammolar, zamonaviy yo‘nalishlar, nazariy ta'lifotlar,

lingvistik maktablar va lingvistik konsepsiyalarga bag‘ishlangan masalalar yoritilgan.

### **Imtihon savollarining tuzilishi:**

Tayanch doktoranturaga kiruvchilar uchun mo‘ljallangan imtihon savollariga tilshunoslik tarixi; til nazariyasi, amaliy va kompyuter lingvistikasi; tilshunoslikning zamonaviy yo‘nalishlari va ilmiy tadqiqot ishi bo‘yicha suhbat kabi masalalarini qamrab oladi.

### **Kirish imtihonining asosiy talablari**

- Dunyo tillarining umumiyligi va xususiy qonuniyatlarini haqida tasavvurga ega bo‘lishi, tilshunoslik tarixi, tilshunoslik maktablari, zamonaviy tilshunoslik masalalarini va tilshunoslik metodlarini bilishi;
- Til tarixi va nazariyasi to‘g‘risida keng bilimni egallay olish, tillar o‘rtasidagi farqlarni ajrata olish, tilshunoslik muammolarini tushuna olish malakasiga ega bo‘lishi va ulardan foydalana olishi
- Ilmiy faoliyat yuritishda nazariy bilimlarni qo‘llash, tilshunoslik bo‘yicha ilmiy izlanishlarga kasbiy nuqtayi nazardan qarash, dunyo tilshunosligida ro‘y berayotgan jarayonlarni o‘zaro bog‘liqlik nuqtai nazardan tahlil qilish, lingvistik tadqiqot metodlarini amaliyotda qo‘llash ko‘nikmasiga ega bo‘lishi zarur.

## **DASTURNING MAZMUNI**

Tilning paydo bo‘lishi. Qadimgi tilshunoslik. Qadimgi tilshunoslikda filologiya masalalari. Hind tilshunosligi va Panini grammatikasi. Qadimgi Grek tilshunosligida til falsafasi. Iskandariya grammatika sistemasi. O‘rta asrlar va uyg‘onish davri tilshunosligi. Mantiqiy va universal grammatika.

Qiyosiy-tarixiy tilshunoslik. Tilshunoslikda germanistika va slavistika. Sanskrit va F.Bopp qiyosiy grammatikasi. V. Gumboldt falsafasi. A. Shleyxer ta‘limoti. G. Shteyntal ta‘limotida til va xalq psixologiyasi. Boduen de Kurtene va F. De Sossyur ta‘limotida til sistemasi.

Tilning ichki tuzilishi. Sistema haqida ma'lumot. Tilning mohiyati. Uning sistema ekanligi. Tilning belgilar sistemasi ekanligi. Lingvistik belgi haqida. Lingvistik belgi tuzilishi. Til strukturasining iyerarxik tuzilishi. Til va nutq. Til sathlari va sathlarga ajratish tamoyillari. Lingvistik birliklar o‘rtasidagi munosabatlar. Bir sathga mansub bo‘lgan birliklar munosabati. Turli sathga mansub bo‘lgan birliklar munosabati. Zidlanish va uning turlari. Til sathlari o‘rtasidagi izomorflik. Fonologik sath. Fonoliya va uning birligi. Fonologik nazariyalar. Morfemik sath. Morfema haqida tushuncha. Morfemaning turlari. So‘z yasalishi. Leksik sath. Leksema va so‘z. Leksik ma'no va uning tuzilishi. Leksik-semantik guruh. Lingvistikada maydon nazariyasi. Morfologik sath. So‘z haqidagi nazariyalar. So‘zlarni turkumlarga ajratish tamoyillari. Sintaktik sath. Gap va uning belgilari. Gap bo‘laklari iyerarxiyasi. Gapda shakl va mazmun. Tilshunoslik metodlari. Bilish usullari va tilshunoslik metodlari. Tilni o‘rganish metodologiyasi va metodlari. Tavsifiy metod. Qiyosiy-tarixiy metod. Struktur metod va uning yo‘nalishlari. Glossematika. Funksional lingvistika. Praga strukturalizmi. Amerika strukturalizmi. Deskriptiv lingvistikaning tahlil metodlari. Distributiv tahlil metodi. Bevosita ishtirok etuvchilarga ajratish metodi. Transformatsiya metodi. An'anaviy va sistem tilshunoslik munosabati masalalari.

Tilshunoslikning boshqa fanlar bilan munosabati. Tilshunoslikning adabiyot bilan munosabati. Lingvopoetika. Tilshunoslikning psixologiya bilan munosabati. Psixolingvistika. Tilshunoslikning etnografiya bilan munosabati. Etnolingvistika. Tilshunoslikning sotsiologiya bilan munosabati. Sotsiolingvistika. Til va tafakkur munosabati. Tilshunoslikning nevrologiya bilan munosabati. Neyrolingvistika. Tilshunoslikning matematika bilan munosabati. Matematik lingvistika.

Muloqot xususiyatlari. Muloqotning ijtimoiy psixologik belgilari. Muloqotning xususiy va umumiylar belgilari. Nutq faoliyati turlari va xususiyatlari. Nutq madaniyati shakllari. Kommunikativ faoliyat. Verbal va noverbal vositalar, tilda sun'iy vositalar, tilda grafik va musiqiy vositalar.

Tilda belgilik va nobelgilik xususiyatlari. Tilshunoslik va semiotika. Umumiy semiotika va lingvosemiotika. Lisoniy belgilar sistemasining o‘ziga xosligi. Lingvosemiotikaning asosiy masalalari. Belgining tushunilishi. Belgi turlari va belgi birliklari. Til birliklarining nobelgilik xususiyatlari.

Til va tafakkur. Mentalingvistikating asosiy yo‘nalishlari. Til va mantiqiy tafakkur. Til va so‘zlovchining psixik faoliyati. Til va axborot yetkazish. Ma’no lingvistik birliklarning mazmuni sifatida. Ma’no va yetkazilayotgan xabarlarning turlari. O‘z va ko‘chma ma’no. Tilning aks ettiruvchilik vazifasi. Forma va mazmuniy ma’no. Til birliklari va kontekst. Tilda nisbiylik nazariyasi. Bilish usullari va lingvistik metodlar. Ilmiy bilish jarayon sifatida. Eksperiment til o‘rganish usuli sifatida. Lingvistik modellashtirish. Lingvistik talqin. Empirik va nazariy bilish birligi. Lingvistik metodlar. Tadqiqot metodikasi. Tadqiqot metodikasi va tasvir usuli. Asosiy lingvistik metodlar klassifikatsiyasi.

Til birliklari va ularni tasvirlash. Til birliklari va ularning xususiyatlari, til birliklari va talqin usullari. Tasviriy metodning asosiy usullari. Tashqi talqin usullari. Sotsiologik usullar. Mantiqiy psixologik usullar. Artikulyatsion akustik usullar. Sathlararo talqin usullari. Distributiv metod. Ichki talqin usullari. Paradigma usullari va paradigmatic metodika. Oppozitsiya usuli. Semantik maydon usuli. Pozitsion usullar. O‘zgartirishlar usuli va transformatsion metodika. Statistik usullar. Instrumental fonetik usullar. Lingvistik tadqiqotlar avtomatizasiyasи.

Alisher Navoiyning til va tafakkur munosabati haqida. Mantiq va tilshunoslik munosabati. Mantiq va grammatika. Mantiqiy va lingvistik kategoriylar. *Kategoriya* tushunchasi haqida. Konsept, tushuncha, so‘z. Kognitiv tilshunoslik va uning metodlari. Freym, senariy va geshtalt metodlari. Konsept – bilimlar majmui. Lingvomadaniyatshunoslik. Hukm va gap. Ramz va uning tabiat. Ramzning muhim jihatlari. Semiotika fani va ramziy tizimlar. Til – ramziy tizim sifatida. Sun‘iy til tushunchasi. Tilning rivojlanish qonuniyatları. Milliy mafkura, milliy til, milliy tilshunoslik va til ta’limi.

## IXTISOSLIK BO‘YICHA BAHOLASH MEZONLARI

**Maksimal ball – 100 b.**

<b>Baho</b>	<b>Ball</b>	<b>Izoh</b>
<b>A’lo</b>	<b>86-100</b>	Ball oxirida har bir savol uchun alohida jamlanadi va belgilanadi. 1-2 savollar uchun 35 ball, 3-savol uchun 30 ball
<b>Yaxshi</b>	<b>71-85</b>	
<b>O’rta</b>	<b>55-70</b>	
<b>Qoniqarsiz</b>	<b>0-54</b>	

**1-savol – 35 b.**

<b>Baho</b>	<b>Ball</b>	<b>Baholash mezonlari</b>
<b>A’lo</b>	30-35	Tilshunoslik sohasidagi zamonaviy qarash va yondashuvlarni to‘liq bilish va javoblarni ilmiy dalillar bilan isbotlash.
<b>Yaxshi</b>	25-29	Til nazariyasi ixtsosligi bo‘yicha zamonaviy qarash va yondashuvlarni to‘liq bilish va javoblarni ba’zi ilmiy dalillar asoslash.
<b>O’rta</b>	19-24	Til nazariyasi ixtsosligi sohasidagi ayrim zamonaviy qarashlarni bilish.
<b>Qoniqarsiz</b>	0-18	Savol bo‘yicha hech qanday axborotga ega emas.

**2-savol – 35 b.**

<b>Baho</b>	<b>Ball</b>	<b>Baholash mezonlari</b>
<b>A’lo</b>	30-35	Nazariy bilimiga tayangan holda, til nazariyasining metodologiyasini yuqori darajada nazariy va amaliy egallaganligi.
<b>Yaxshi</b>	25-29	Til nazariyasi ixtisoligi bo‘yicha olib borilayotgan tadqiqotlarning ob’yektini yaxshi tushunishi.
<b>O’rta</b>	19-24	Mavzu bo‘yicha faqat nazariy yoki faqat amaliy kasbiy malakani egallaganligi.
<b>Qoniqarsiz</b>	0-18	Savol bo‘yicha nazariy bilim va amaliy tajribaga ega emasligi.

**3-savol – 30 b.**

<b>Baho</b>	<b>Ball</b>	<b>Baholash mezonlari</b>
<b>A’lo</b>	27-30	Tanlagan ixtisoslik bo‘yicha umumiyl tushunchaga ega bo‘lishi va qo‘sishma

		savollarga javob bera olishi.
<b>Yaxshi</b>	22-26	Bajarilgan ilmiy-tadqiqoti bo'yicha ma'lumotga ega bo'lish, uning dolzarbligi, yangiligi, erishilgan natijalari, tavsiya va xulosalarini yaxshi taqdim eta olish.
<b>O'rta</b>	17-21	Ilmiy ixtisoslikni haqida to'liq ma'lumotga ega bo`lmaslik uning mohiyatini olib berma olmaslik.
<b>Qoniqarsiz</b>	0-16	Ilmiy-tadqiqot bo'yicha ma'lumot bera olmaslik.

### **Foydalilaniladigan adabiyotlar:**

1. Bushuy T. Yazik v istorii razvitiya chelovecheskoy misli. – Tashkent: Fan, 2011.
2. Bushuy T., Safarov Sh. Til qurilishi: tahlil metodlari va metodologiyasi. – Toshkent: Fan, 2007.
3. Dadaboev H. Tilshunoslik nazariyasi va metodologiyasi. – Toshkent, 2004.
4. Nurmonov A. Struktur tilshunoslik: ildizlari va yo'nalishlari. – Andijon, 2006.
5. Nurmonov A., Iskandarova Sh. Umumiyl tilshunoslik. Andijon – 2007.
6. Rahmatullaev Sh. Sistem tilshunoslik asoslari. Til qurilishini tizim sifatida o'rghanish masalalari. – Toshkent: Universitet, 2007.
7. Rasulov R. Umumiyl tilshunoslik. – Toshkent, 2011.
8. Stepanov Yu.S. Metodi i prinsipi sovremennoy lingvistiki. – M., 2001.
9. Muhammad H., Zokirov M., Zokirova S., Gozieva T. Til nazariyasi va amaliyoti: Til nazariyasi fanidan amaliy mashgulotlar uchun o'quv-uslubiy qo'llanma/ ilmiy nashr/ - Farg'ona: «Farg'ona» nashriyoti, 2016. - 208 b.
10. Шарафутдинова Н.С. Теория и история лингвистической науки. М., 2007.
11. Попова З.Д., Стернин И.А. Когнитивная лингвистика. М., 2007.

